Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy...

марказларини ташкил этиш билан амалга оширилса корхонада ишлаб чиқарилаётган маҳсулотга кетаётган харажатларни оптималлаштиришга эришилиб харажатларнинг фойдалилик даражасини юксалтиришга эришиш мумкин бўлар эди.

Ишлаб чиқариш билан шуғулланувчи корхоналарда харажатларнинг асосий қисмини хом-ашё ва ишлаб чиқаришдаги меҳнат ҳаки харажатлари ташкил этса, хизмат кўрсатиш корхоналарида эса сотиш харажатлари ва маъмурий харажатлар асосий ўринни ташкил этади. Шундай экан корхонада ишлаб чиқарилган маҳсулот таннархига киритиладиган ва киритилмайдиган ишлаб чиқариш, сотиш ва маьмурий харажатларини масъулият марказларида таснифлаш, ҳисобга олиш, бошқариш ва режалаштириш керак бўлади. Бу орқали эса биз нафақат харажатларни шу билан бир қаторда даромадларимизни хам таснифлашга эришишимиз мумкин бўлади. Бу билан эса корхонамизда фаолият олиб бораётган бўлимларнинг фойдалилик даражасини ва хаттоки ходимларнинг иш эффективлик даражасини хам баҳолашимиз мумкин бўлади. Бу йиғилган бухгалтерия маьлумотлари корхона раҳбарлари ва бўлажак инвесторлар учун ҳам энг муҳим ва қимматли маьлумот хисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР.

1. Ризаев Н., Ҳотамов К. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини жорий этишда Япония тажрибаси. “Молия ва банк иши” электрон-илмий журнали. Тошкент, №1. 2020.
2.Даромадлар ва харажатлар ҳисоби ҳақида тахлилий услубиёти (автотранспорт корхоналари мисолида) [Матн]/М.Б.Колонов.-Тошкент: Akademnashr, 2019.-352 б.
3. Rizaev. N.K. INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS IN THE AGRICULTURAL SECTOR AND THEIR INTRODUCTION TO THE PRACTICE OF UZBEKISTAN. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 2021 йил 2-сон.
4. 2022 йил якуни бўйича давлат бюджетининг даромад ва харажатлари. .. - UzNews.uz.
5.https://president.uz/uz/lists/view/4424
LEX.UZ ЎРҚ

MA’SULIYAT MARKAZLARI BO‘YICHA XARAJATLARNI BOQARISHNING TAHLILIY MASALALARI

Saliev B. K.
TDIU dotsenti, i.f.n.
Baxodirov M.N.

Published: 28.03.2024

Cite this article: Saliev B. K., Baxodirov M.N. (2024). Ma’suliyat markazlari bo‘yicha xarajatlarni boqarishning tahliliy masalalari. Emro Science and Education, 1(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/251

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Toshkent Bucheon Universiteti talabasi

Anotatsiya: Maqoladi korxonalarning iqtisodiy salohiyatini oshirishning eng dolzarb masalalaridan biri ma’suliyat markazlari bo‘yicha xarajatlarni boshqarishni amalga oshirishning tahliliy masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Xarajat, ma’sulyat markazi, daromad, foyda, investitsiya, doimiy xarajat, o‘zgaruvchi xarajat, marjinal daromad.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning xozirgi bosqichida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning asosiy maqsadi o‘z faoliyatlari natijasida imkon qadar ko‘proq foyda olish, o‘zining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va raqobatbardoshligini oshirib borish orqali bozorda o‘z o‘rnini topish va mustaxkamlab borishdan iborat.Bu maqsadga erishish uchun ular albatta moliyaviy natijalarning yahshilashning eng muhim omillaridan biri, operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatlari bilan bog‘liq xarajatlarini muntazam tahlil qilib borishlari, ularni kamaytirish imkoniyatlarini qidirib topishlari va bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish tadbirlarini ishlab chiqishlari hamda amaliyotga tadbiq qilishlari lozim.

Keyingi yillarda korxonalar o‘z daromadlari va xarajatlarini atroflicha tahlil qilish, ularni boshqarish va hisobga olishni takomillashtirish asosida o‘z foydasini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqdalar. Chunki, korxona ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar bilan ichki bozorni sekin-asta to‘yinib borishi va tashqi bozordaga kuchli raqobat kurashi maxsulotlar bahosini biroz bo‘lsada kamaytirishni taqazo qiladi. Bunga esa faqat olinayotgan foyda miqdorini kamaytirmagan holda maxsulotlar tannarxi va boshqa xarajatlarni kamaytirish orqaligina erishish mumkin.

Korxona xarajatlari tahlili va boshqaruv hisobini takomillashtirish, ya’ni ichkizovod boshqaruvini ta’minlash maqsadida “Moliyaviy ma’suliyat markazlari” (MMM) bo‘yicha boshqarish tizmiga tashkil qilishga alohida e’tibor berish lozim. Bu tizim korxona faoliyatining yakuniy natijasiga har bir bo‘limning hissasini baholash, xarajatlarning boshqarishni bo‘limlarga yuklash, xarajatlarni shakillanishi kuzatish imkonini beradiki, bu o‘z navbatida xo‘jalik yuritishning iqtisodiy samaradorligini oshishiga olib keladi.

Korxonasida tashkil qilinadigan “Moliyaviy ma’suliyat markazi”ning yakuniy maqsadi foydani optimallashtirishga qaratilgan operatsiyalarni amalga oshiruvchi, foydalilik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishga qobil, belgilangan limit doirasida xarajatlar darajasini saqlay oladigan va belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun yuqori boshqaruv organi oldida javob bera oladigan tuzilmaviy bo‘limdir. Bu markazning tarkibiga bir qator markazlar kiritilgan bo‘lib, ular *xarajatlar markazi, daromadlar markazi, foyda markazi va investitsiya markazini* o‘z ichiga oladi.

Har bir markazning o‘ziga xos mas’uliyati bo‘lib, unga belgilangan funksiyalarni amalga oshirish bilan shug‘illanadi. Xususan, *xarajatlar markazi* ishlab chiqarish sexi xarajatlari bo‘yicha javob beradi va ular asosan maxsulotlar tannarxini

shakillanishini nazorat qiladilar. *Daromadlar markazi* tayyor maxsulotlar, tovarlar, ish va xizmatlarni sotish va ular anashu jarayonda yuzaga keladigan xarajatlarning nazorati uchun ham javob beradi. *Foyda markazi* korxonaning yakuniy moliyaviy natijalarini shakillanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi jarayonlarni nazorati bilan shug‘illanadi. *Investitsiya markazi* korxonaning investitsion faoliyatini – uning vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini daromad olish maqsadida qimmatli qog‘ozlar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olish va sotish maqsadida joylashtirish bilan bog‘liq faoliyatini amalga oshirish uchun javobgardir.

“Moliyaviy ma’suliyat markazi” bo‘limlari korxonalarda hozircha alohida funksional tizimlarga ajratilmagan va tizim osti bo‘limi shaklida tashkil qilinayotgan bo‘lsada, ular ishini faollashtirishga jiddiy ahamiyat berilmoqda. Bu bilan korxona, bir tomondan, “Moliyaviy ma’suliyat markazi” bo‘limlarining optimal tuzilmasini shakillantirish masalasini o‘rganish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, xozircha sinovdan o‘tmagan yangi bo‘limlarni saqlash bilan bog‘liq xarajatlarni iqtisod qilib turishdir.

Korxonalarda moliyaviy ma’suliyat markazini samarali ishlashini ta’minlash, uning bo‘limlari ta’sir doirasini aniqlab olish va keyinchalik uning asosida samarali boshqarish tizimini tashkil qilish uchun, uning amalga oshirish tartiblari o‘rganilmoqda va ishlab chiqilmoqdi. Uning tarkibiga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- moliyaviy ma’suliyat markazini yaratish va uni statusini aniqlash;
- markazning xuquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi ichki nizomni ishlab chiqish;
- markaz va uning bo‘limlari orasidagi o‘zaro aloqalarni aniqlash;
- har bir markaz bo‘yicha tuziladigan reja va hisobotlar ro‘yxatini yaratish;
- markaz faoliyati samaradorligini baholovchi ko‘rsatkichlar tizmini ishlab chiqish;
- markaz faoliyati samaradorligiga bog‘liq xolda ularning raxbarlarini moddiy rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish.

Korxonaning tashkiliy tuzilmasiga muvofiq “Moliyaviy ma’sulyat markazi”ni yaratish uning xar bir bo‘limi faoliyatini aniq shaxs ma’suliyati bilan bog‘lash, xar bir bo‘lim faoliyati natijalari baholash va ularni korxona umumiy natijasiga qo‘shgan xissasini aniqlash imkonini beradi.

Ma’lumki, xarajatlarni boshqarishning asosiy vazifalari bo‘lib, ta’luqli kalkulyatsion moddalar bo‘yicha xaqiqatdagi xarajatlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri aks ettirish, ishlab chiqarish resurslari foydalanish darajasini baholash bo‘yicha boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axboratlarni taqdim qilish, resurslar sarfini belgilangan ma’erlarga muvofiq amalga oshirilishini tezkor nazorati tashkil qilish, unumsiz xarajatlarni oldini olish va bartaraf etish, maxsulotlar tannarxi va davr xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi.

Xarajatlarni kamaytirish va shu asosda maxsulotlar tannarxini arzonlashtirish imkoniyatlari o‘rganilar ekan, shu narsaga alohida e’tibor qaratish lozimki,

maxsulotlar bo‘yicha xarajatlarni taqsimlash orqali ularni tannarxga qo‘shish tamoyili ba’zan ularni nazorat qilish imkoniyatlarini bermaydi. Ayrim hollarda, maxsulotlar ishlab chiqarish bir necha ishlab chiqarish bosqichlaridan iborat bo‘lib, xar bir bosqich uchun aniq shaxslar javob beradi. Shuning uchun ham, garchi maxsulot tannarxi xaqida aniq ma’lumotga ega bo‘linsada, xarajatlarni ishlab chiqarishning ayrim bosqichlari (ma’sulyat markazlari) bo‘yicha qanday taqsimlanayotganligini aniq hisoblash imkoni bo‘lmaydi. Shuning uchun ham korxonada xar bir bosqich uchun xarajatlar sarflanishiga ma’sul shaxsini biriktirish maqsadga muvofiq degan fikrdamiz.

Xarajatlarni boshqarish bilan shug‘illanuvchi shaxslar albatta ular xaqida chuqur va atroflicha bilimga ega bo‘lishlari, xarajatlar tabiatini yaxshi o‘rganishlari va ularni tarkibini yaxshi tushunishlari lozim. Shu nuqtai nazardan analitik maqsadlar uchun xarajatlarni bir qator belgilari bo‘yicha turkumlash maqsadga muvofiq: ishlab chiqarishdagi ishtrokini aniqlash maqsadida (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari); nazorat qilish va boshqarish maqsadida (nazorat qilinadigan va nazorat qilinmaydigan); sotilgan maxsulotlar bilan hisobdan chikarish davrini aniqlash maqsadida (ishlab chiqarish tannarxi va davr xarajatlari); kalkulyatsiya qilish va ishlab chiqarilgan maxsulotni baholash maqsadida (to‘g‘ri–bevosita va egri–bilvosita xarajatlar); maxsulot hajmini o‘zgarishiga bog‘liqligi va rejalashtirish maqsadida (o‘zgaruvchi va doimiy xarajatlar) va boshqalar.

Korxonalarda “Moliyaviy ma’sulyat markazi” orqali xarajatlarni boshqarish bo‘limlarning daromad va xarajatlar uchun ma’suliyati belgilanib, ularning yakka yoki gurx boshqaruvchilariga vakolatlarini taqsimlash asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Bunda markaz orqali xarajatlarni boshqarishning mohiyatidan kelib chiqib, xar bir markaz uchun qat’iy belgilangan tartib bo‘yicha xarajatlarni maxsulot, ish va xizmatlarga olib boriladi va marjinal daromad aniqlanadi.

Marjinal daromad korxonaning birinchi tartibli ishlab chiqarish bo‘linmalarining xar biri uchun alohida-alohida va korxona bo‘yicha ularning yig‘indisi sifatida aniqlanadi. Marjinal daromad (Md)ni aniqlash uchun xar bir sex hisobiga to‘g‘ri keladigan daromad (Ct), o‘zgaruvchi xarajatlar (Ux) va asosiy ishlab chiqarish bo‘yicha to‘g‘ri doimiy xarajatlar (Tdx) bo‘yicha ma’lumotlar bo‘lishi lozim. Ushbu ma’lumotlar asosida xar bir ishlab chiqarish bo‘linmasining marjinal daromadni quyidagi tartibda hisoblashni taklif qilamiz:

$$\mathbf{Md = Ct - Ux - Tdx} \qquad (1)$$

Formulaga kiritilgan o‘zgaruvchi xarajatlar (Ux) tarkibiga, xar bir ishlab chiqarish bo‘linmasi bo‘yicha asosiy materiallar, xom ashyo va butlovchi buyumlar bo‘yicha xarajatlar (Cm), asosiy ishchilarning ish xaqi xarajatlari (Zp), ijtimoiy sug‘urta xarajatlari (Ss) boshqa o‘zgaruvchi xarajatlar (Rx) va o‘zgaruvchi noishlab chiqarish xarajatlari (Hi) kiritilishini hisobga oladigan bo‘lsak, u xolda xar bir ishlab chiqarish bo‘linmasining o‘zgaruvchi xarajatlarini quyidagicha hisoblash mumkin:

$$\mathbf{Ux = Cm + Zp + Ss + Rx + Hi} \qquad (2)$$

Demak, xar bir ishlab chiqarish bo‘linmasining marjinal daromadlarini hisoblash formulasi, yuqorida keltirilgan xarajatlar tarkibini hisobga olgan holda quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\mathbf{Md = Ct – (Cm + Zp + Ss + Rx + Hi) – Tdx} \quad (3)$$

Xar bir ishlab chiqarish bo‘linmasining marjinal daromadlarini hisoblash xarajat markazlarining daromadlarni ko‘paytirish va xarajatlarini kamaytirish borasida olib borayotgan faoliyatlarini baholash imkonini beradi. Xarajat markazlari faoliyatini to‘liq baxolash uchun esa “Moliyaviy ma’sulyat markazi” bo‘yicha marjinal foyda (MP)ni hisoblash lozim. Buning uchun, dastavval umumiy doimiy xarajatlar (Dx) aniqlab olinadi va quyidagi foruladan foydalanadi:

$$\mathbf{MP = \sum Ct – \sum Ux – \sum Tdx - \sum Dx} \quad (4)$$

Umumiy marjinal foydani aniqlash orqali xar bir ishlab chiqarish bo‘linmasini va demak xarajat markazini uning shakillantirishdagi rolini aniqlash imkonini beradi. Demak, “Moliyaviy ma’sulyat markazi” bo‘yicha xarajatlarni boshqarish uslubiyotini ishlab chiqish, xarajatlarni turkumlashni ilmiy asosini yaratish, boshqarish qarorlari qabul qilish uchun rejalashtirish va nazorat usullarni to‘g‘ri tanlash korxona xarajatlari tabiatini yaxshi tushinib olish va ularni samarali boshqarish uchun mukammal asos yaratadi.

Korxonalarda “Moliyaviy ma’sulyat markazi” bo‘yicha xarajatlarni boshqarish uslubiyotini ishlab chiqish bilan bir qatorda foydani boshqarish asoslarini ham yaratishga zarur. Bunday markaz orqali foydani boshqarish uni shakillanishi, taqsimlanishi va ishlatilishining turli tomonlari bo‘yicha u yoki bu darajada boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lgan korxonaning barcha ichki tuzilma xizmatlari va bo‘linmalari faoliyatiga tegishlidir.

Bizning nuqtai nazarimizda, “Moliyaviy ma’sulyat markazi” bo‘yicha foydani boshqarish uslubiyotini qo‘llashning asosiy maqsadi – uning qisman va korxonani umuman maksimal foyda olish, samaradorlik va rentabellikka erishishga qaratilgan faoliyati istiqbolini belgilash va baholash hisoblanadi.

Korxonalarda “Moliyaviy ma’sulyat markazi” tashkil qilish orqali foydani boshqarishni kuyidagi tartibda amalga oshirish lozim:

- foydani shakillanishi va ishlatilishi ayrim tomonlariga u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatish nuqtai nazardan korxonaning ayrim tuzilmaviy bo‘limlarini ishlash xususiyatlarini o‘rganish;
- korxona tuzilmaviy bo‘limlari doirasida ma’sulyat markazlarining asosiy turlarini aniqlab olish;
- ma’sulyat markazi sifatida aniqlangan tuzilmaviy bo‘limlar raxbarlarini huquq, majburiyat va ma’sulyat darajasi tizmini shakillantirish;
- budjet shaklidagi reja yoki normativ topshiriqlarini ishlab chiqish va ularni ma’sulyat markazlariga yetkazish;

- ta’luqli axborotlarni (hisobotlarni) olish, ularni tahlil qilish va tafovutlar sabablarini o‘rganish orqali ma’suliyat markazi tomonidan belgilangan ma’suliyatni bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlash.

“Moliyaviy ma’sulyat markazi” orqali foydani boshqarish uslubiyoti asosida ham, xarajatlarni boshqarish uslubiyotidek, marjinal tahlil yotadi va bu yerda ham xar bir ma’sulyat markazlari bo‘yicha marjinal daromad va foyda aniqlanadi:

$$\sum \mathbf{Ct} - \sum \mathbf{Ux} = \sum \mathbf{Md} - \sum \mathbf{Dx} = \mathbf{P} \qquad (5)$$

Ko‘rinib turibdiki, korxonaning foydasini shakillanishi va unga ta’sir etuvchi omillar o‘zaro bog‘liqlikda ifodalanmoqda. Bu foydani o‘zgarishiga xar bir omilni – maxsulotlar ishlab chiqarish xajmi va sotishdan tushgan sof tushumni, maxsulot, ish va xizmatlar bahosini, doimiy va o‘zgaruvchi xarajatlar ta’sirini bemolol o‘lchash imkonini beradi.

O‘rni kelganda, shuni ham ta’kidlash lozimki, korxonalarda yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlardan foydalanib “Moliyaviy ma’suliyat markazi”da zarar ko‘rmay ishlash (zararsizlik) nuqtasi (***Zn***) ham muntazam o‘rganib boriladi. Uni quyidagi tartibda hisoblashni taklif qilamiz:

$$\boldsymbol{Зн} = \frac{\boldsymbol{Dx}}{\boldsymbol{sp-ux}}, \qquad (6)$$

bu yerda *sp* – maxsulot birligini sotish bahosi;

ux – maxsulot birligiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchi xarajatlar;

Yuqorida keltirilgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar zarar kurmay ishlash nuqtasidagi maxsulotlar xajmini, doimiy va o‘zgaruvchi xarajatlar tuzilmasini, marjinal daromad va foydani shakillanishini korxona va uning bo‘linmalari bo‘yicha tahlil qilish va shu asosda uning xarajatlari va moliyaviy natijalarini boshqarish tizimini takomillashtirish imkonini beradi.

Korxona xarajatlari va foydasi tahlil qilinar ekan albatta ularning o‘zgarishi atroflicha o‘rganiladi. Bu borada korxonalarga “Tafovutlar tahlili” uslullaridan keng foydalanish va korxonalar uchun anashunday usulларn qo‘llash bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar yaratib berish ham tahlilchi olimlar olddida turgan asosiy masalalardan biridi. Aynan tafovutlar tahlili xarajatlar nazoratiga yo‘naltirilgan va, demak, moliyaviy natijalarni optimallashtirishga qaratilgan. Tahlil jarayonida xarajatlar markazining xar bir bo‘limi, maxsuloti yoki operatsiyasining xaqiqiy va rejalashtirilgan (me’yoriy) xarajatlarni solishtirish orqali ularni samarali boshqarish mumkin.

Xullas, korxonalarda “Moliyaviy ma’sulyat markazi”larini tashkil qilish xar bir ma’suliyat markazi bo‘yicha xarajatlar, daromadlar va foyda xaqida mukammal ma’lumotlar olish, olingan ma’lumotlar asosida atroflicha tahlil o‘tkazib, yuzaga kelayotgan tafovutlarni sabablarini o‘rganish va salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillar ta’sirini bartaraf qilish imkonini beradi. Maxsulotlar miqdori va bahosini, doimiy va o‘zgaruvchi xarajatlar xajmini o‘zgarishiga bog‘liq xolda foyda va rentabellikni istiqbolli belgilash albatta korxona moliyaviy xolatini mustaxkamlash borasida katta imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qurbonov Z.N., Misirov K., Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2019. –756 b
2. Assessment in Accounting: Concept and Tools Monograph General editorship Doctor of Economic Sciences, Professor O. Fomina December, 2018
3. ACCA Management Accounting (MA/FMA) Study Text: Published by: Kaplan Publishing UK Unit 2 The Business Centre Molly Millars Lane Wokingham Berkshire RG41 2QZ ISBN 978-1-78740-855-5 © Kaplan Financial Limited, 2021

АУДИТНИНГ ТАШКИЛИЙ-УСЛУБИЙ ШАКЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Қосимова Зиёда Ҳакимовна
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
2-курс магистранти

Мамлакатимиз мустақилликка эришгандан сўнг молиявий назоратнинг замонавий шакли бўлган - аудиторлик хизматининг ривожлантиришга эътибор кучайди. Сўнгги йилларда мамалакатимизда аутсорсинг хизматларига талаб ортиб бормоқда. Жумладан бухгалтерлик хизматларига, аудитор маслаҳатларига хам талаб ортиб бормоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармонида белгиланган 2017– 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган вазифалардан келиб чиқиб, Ўзбекистонда амалга оширилаётган ижтимоийиқтисодий ислоҳотлар даврида аудиторлик фаолиятининг норматив-ҳуқуқий ва услубий базаси такомиллаштирилмоқда, шунингдек, аудиторлик фаолиятини лицензиялашнинг соддалаштирилган ва муддатсиз тизими жорий этилмоқда, бу аудиторлик хизматлари бозорининг шаклланишига ва маҳаллий аудиторлик ташкилотлари аудиторлик компанияларининг йирик халқаро тармоқларига киришини таъминлашга имкон яратади.[31]

Ички назорат хдкида гапирганда шуни х.ам англаш керакки, у факат аник максадларга эришишга йуналтирилгандагина фойдали хисобланади ва назорат натижаларини бахолашдан аввал бу максадни аниклаш зарур. Ички назоратнинг бешта асосий максади бор:

[31] Ш.М.Мирзиёев 2019 йилда мамлакатимизни ривожлантиришнинг энг муҳим устувор вазифалари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Парламентга Мурожаатномаси. 2018 йил 28 декабрь.